



O'zbekistonda konfessiyalararo munosabat

O'zbekiston tarixi fani o'qituvchisi

Islamova S.



O'tilgan mavzuni mustahkamlash

- Baynalmilal so'zining ma'nosi?
- Millatlararo munosabatlardagi yangi davr deganda nimani tushunasiz
- Qaysi madaniyat markazlarini bilasiz?



Dinlararo bag'rikenglik



- *Dinlararo bag'rikenglik* deb, xilma-xil din va mazhab egalarining bir-birining e'tiqodini o'zaro hurmat qilib, tushunib, yagona zamin, yagona vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashiga aytiladi.





Dinning funksiyalari

- Dinning jamiyatda bajaradigan bir qancha funksiyalar mavjud. Ba'zi mualliflar fikriga ko'ra dinning muhim funksiyalardan biri bu boshqaruv-nazorat funksiyadir¹. Din ham jamoatchilik ongining boshqa shakli sifatida kishilar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Din mazkur funksiyani muayyan qadriyat va me'yorlar tizimini yaratish asosida amalga oshiradi
- Dinning ikkinchi muhim funksiyasi bu jiplashtiruvchi (integrativ) funksiyasidir yaniinsonlarniijtimoiy kelib chiqishiva mavqeidan qat'iy nazar jiplashtirishidir



Dinlararo bag'rikenglik

- Mustaqillik sharoitida etnik munosabatlar va din sohasida olib borilayotgan izchil va qat'iy siyosat tufayli mamlakatimizda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik qaror topdi. Konstitustiyamizda «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar», degan tamoyilning mustahkamlab qo'yilishi esa, bu boradagi ishlarning qonuniy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.





Dinlararo bag'rikenglik

- Bugungi kunda mamlakatimizda turli e'tiqodga mansub tashkilotlar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglik muhiti o'rnatilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'tgan 20 yil mobaynida bu yo'nalishda muayyan natijalarga erishildi. Eng asosiysi - bag'rikenglikning muhim omillaridan biri bo'lgan millatlararo va dinlararo totuvlik to'la ta'minlandi. Bugun mamlakatimizda 16 diniy konfessiyaga mansub 2000 dan ortiq diniy tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda, Toshkent islom universitet, 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurti ishlab turibdi.





Dinlararo bag'rikenglik

- 2007 yil 11 oktabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohida tinchlik yo'lida dinlararo va madaniyatlararo o'zaro tushunish hamda hamkorlikni qo'llab-quvvatlash yuzasidan BMT Bosh assambleyasining yuqori darajadagi muloqoti doirasida «Dinlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqot: O'zbekiston tajribasi» mavzuiga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi





- Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan 2224 ta diniy tashkilotdan 175 tasi noislomiy bo'lib, ulardan 159 tasi nasroniy, 8 tasi yahudiylar, 6 tasi bahoiy jamoasi, 1 tasi Krishnani anglash jamiyati va 1 tasi buddaviylikni tashkil etadi. Bulardan tashqari Respublikada Konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda.
O'zbekistonda nasroniylikning uch yirik yo'nalishi pravoslav, katolik va protestantlik yo'nalishlariga oid diniy tashkilotlar mavjud. Shuningdek, nasroniylikda o'z yo'nalishiga ega bo'lgan Arman Apostollik cherkovi ham faoliyat ko'rsatmoqda.





Uyga vazifa

- Vijdon erkinligi to'g'risidagi qonunlar bilan tanishish (mamlakatlar miqiyosida)
- Diniy bag'rikenglik tamoyillari qaysilar
- Bugungi kunda diniy ta'limga e'tibor qay darajada